

## ABULHAYRXON VA TEMURIY HUKMDORLAR

*Omonqulov Zuhridin*

*JDPI Tarix fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Mirzayev Bekzod*

*tarix va uni o`qitish*

*metodikasi kafedra o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mohir siyosatchi va sarkarda, davlat arbobi bo'lgan Abulhayrxonning siyosiy faoliyati tarixiy yozma manbalardagi ma'lumotlar asosida yoritildi.

**Kalit so'zlar:** *Abulhayrxon, Shayboniylar sulolasi, Turkiston mulki, Movarounnahr, hadis ilmi, fiqh, safaviylar, tasavvuf, tariqat, she'riyat.*

**Аннотация.** В данной статье опираясь на исторические рукописи, освещены политическая, военачалника, государственного деятеля Абулхайхана.

**Ключевый слова:** *Абулхайхан, Шейбаниди, землевлазения в Туркистане, Маварауннахр, изучения хадисов, творческая интеллигенция, сафавийи, поэты, религиозный дятели.*

**Anotatsion.** In this article political of Muhammad Sheibanikhan, a well-known politician and commander-in-chief, statesman are based on historical sources.

**Key words:** *Abulhayrxon, Shaybonid's, the legacy of Turkistan, Movaraunnahr, learning xadises, creative intellagency, safaviys, sufizm, poets.*

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, jamiyatimizning barcha sohalari kabi ma'naviy soha, shu jumladan, qadimiy boy o'tmishimiz tarixining tiklanishi tufayli milliy ma'naviyatimizning ko'plab darg'alari, ularning hayot va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa yetkazildi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o'zining Oliy Majlisga qilgan murojatnomasida: “..milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim” (<http://xs.uz>) dir, deb ta'kidlab o'tganligi fikrimiz isboti bo'ladi. Mazkur maqola “O'zbek ulusi”ning asoschisi Abulhayrxonxoning

hokimiyatga kelishi va harbiy yurishlari mavjud yozma manbalarga asoslangan xolda yoritildi.

Ma'lumki, XV asrning 20-yillarida Shaybon ulusi (Janubiy-g'arbiy Sibir orti va Sirdaryo havzasi)da bir necha mustaqil xonlar hukmronlik qilgan. Jumladan, 1425 yilda bo'lib o'tgan voqealarga ko'ra, bu xonlardan biri, mang'it ulusi bilan yonma-yon yerda ya'ni, Orol dengizining shimoli, Sarisuv va Emba daryolari o'rtasidagi yerlarda Jumaduxon (1425-1428) hukmronligi o'rnatilgan edi. Shu o'rinda, Muhimmad Yusuf Munshiyning yozishicha, Davlat Shayx o'g'lonning vafotidan keyin ushbu ulusda hokimiyat uchun kurash kuchayadi va natijada uning kenja o'g'li Abulhayr xon taxtdan ayriladi [2,49]. Mahmud ibn Valining qayd etishicha: "Saodatmand shahzoda (Abulhayr xon) balog'atga yetmaganligidan va uning tole' yulduzi tulu' etmog'i hali bir necha kunga uzoq bo'lgani uchun shayboniy sultonlardan manbalarda Yumadux deb ataluvchi Jumaduxon ibn So'fi o'g'lon hokimlik dastining yengini shimarib, makrni ishga solib, taxt vorisi (Abulhayr xon)ning ishini mushkul qildi va shunday qilib, uning yo'liga yolg'onchilik to'rlarini tashlab, barcha ko'chmanchi qabilalar va askarlarning qalblarini rom qildi" [3,34-35]. Abulhayrxon hokimiyat qo'lidan ketganligini ko'rib, boshqalar qatori Jumaduxon ibn So'fi o'g'lon hokimiyatini tan oldi.

Shaybon ulusida mustaqil hukmronlik qilgan yana bir xon Mahmudxo'ja ibn Koonbek edi. Shuningdek, Tura shahri va uning atrofidagi yerlar burkut qabilalari boshliqlari Adabbek va Kepakbeklarning qo'l ostida edi. Ishim daryosi o'ng irmog'i, Otbosarning chap irmog'ida yana bir ko'chmanchi o'zbek xon – Mustafaxon mustaqil hukmronlik qilar edi. Mang'it ulusida esa, Idiku (Edigey) o'zbekning o'g'li G'ozibiy hukmron edi. Manbalarda bu o'lkalarning ichki hayoti va ularning o'zaro aloqalari haqida ma'lumotlar yetarli emas. Mahmud ibn Valining so'zlariga qaraganda, hokimiyatni Jumaduxon egallagach, tez orada boshlangan shayboniylarning barcha uluslaridagi o'zaro janjallar, mang'it ulusida ham davom etgan edi. Aynan ushbu ulus isyonchilarini jazolash uchun yurish qilgan Jumaduxon o'zaro jangda mag'lubiyatga uchraydi va ko'p lashkarboshilari, shu qatori o'zi ham asir olindilar va mang'itlar boshliqlari (Kepakxo'jabiy, Musoxo'ja, Turdixo'ja, Boyxo'ja bahodir, Sarig' Usmon va boshqalar)ning qarorlariga binoan, qatl etildilar [4,45-48].

Ana shu vaqtda Jumaduxon qo‘shinining javong‘origa qo‘mondonlik qilayotgan yosh Abulhayr ham asir olingan edi. Ammo, uning hayoti saqlab qolindigina emas, balki Sarig‘ Usmon, Olasha bahodir kabi oqsoqollar yordamida keyinchalik, yosh Abulhayr bir necha jangovar qo‘shinini to‘plab, 1428 yilning bahorida o‘z ulusiga keldi. Bu yerda Abulhayrni bir qancha qabila-urug‘lar, jumladan, qiyot, mang‘it, do‘rmon, qo‘shchi, o‘toji, nayman, uqarash-nayman, tubai, toymas, jot, xitoy, uyg‘ur, qarluq, usun, qarlaut, tuman-ming, tang‘ut, qo‘ng‘irotlarning boshliqlari va ruhoniylarning vakillari: sayyid Qulmuhammad, Qora Sayyidlar qo‘llab-quvvatlab, uni xon deb e‘lon qildi. Mahmud ibn Valining yozishicha, Abulhayrxonni o‘sha davrda qabilalar va urug‘larning ikki yuzga yaqin vakillari qo‘llab-quvvatlagan[3,38]. Bunday qo‘llab-quvvatlanishning boisi shuki, o‘sha vaqtlarda qabila va uluslarning bir-birlarini talash bilan davom etgan uzluksiz kurashlari hamda ko‘chmanchilarning keng xalq ommasi g‘alayonlari bo‘lishi mumkinligidan xavfsiragan zodagonlar mamlakatni markazlashtirishga kuch-qudrati yetadigan xon atrofida birlashib, mehnatkash xalqni itoatda saqlab turishga qodir bo‘lgan davlat tuzumini barpo etishga majbur bo‘lgan edi. Ushbu omillar ko‘chmanchi o‘zbeklarning Abulhayrxon boshchiligidagi davlat tuzilishiga olib keldi va ushbu davlat ko‘chmanchilarning ilk davlati bo‘lmay, xuddi xunlar (gunlar), turklar va Markaziy Osiyoning boshqa ko‘chmanchi xalqlari davlatlariga o‘xshash bo‘lib, faqat qayta tiklangan yangi bir ko‘rinishi edi.

Zero, XVI asr o‘rtalarida yashab ijod etgan Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an qalamiga mansub “Musaxxir al-bilod” asarida bayon etilishicha, “...Ulug‘ xon Abulhayrxon o‘ta shavkatli, Bahrom savlatli, dinparvar, shariat yoyguvchi podshoh bo‘lib, Xoja Mahmudxon shahidligidan keyin, Dashti Qipchoq podshohligi ya‘ni, Turkiston, Sig‘noq chegarasidan tortib, butunligicha uning qo‘liga o‘tdi. Yigirma to‘rt yoshligida davlatining g‘alabaga yorligi, mansab quvvati va hashamatining orqasida Xorazm viloyatini Shoxrux Mirzo ibn Amir Temur Ko‘ragonning tasarruf changalidan chiqarib olib, xoqonlik taxti avji va jahonbonlik osmoniga suyandi” [8,23-24-b.].

Bir so‘z bilan aytganda, uning podshohona qahramonligi dovrug‘i va husravona shon-sharafi ovozi barcha yerlarga yetgach, tevarak-atrofdagilar ul hojot ahlining ka‘ba martabali saroyi sari yuzlandilar. Har biri o‘z istaklari

miqdorida omonlik hosili va ikki jahon ehtiyojlarini qo‘lga kiritib qaytadigan bo‘ldilar. Shu jumladan, Amir Temur Ko‘ragonning ulug‘ avlodidan Sulton Abusa‘id Mirzo (1451-1469) va uning inisi Manuchehr Mirzo va Muhammad Jo‘ki Mirzo hamda Sulton Husayn Mirzolar ul hazratning xizmatlariga kelib, humoyun o‘zangisining davlat mulozimi kabi bo‘ldilar va uning sharofati va himoyati tufayli o‘z istaklariga yetdilar.

Markazlashgan davlat tuzish rejasida bo‘lgan Abulhayrxon o‘z oldiga faqat Shaybon ulusini birlashtirishgina emas, balki qachonlardir Oltin O‘rdaga tobe‘ bo‘lgan viloyatlar, ya‘ni, Urol daryosining sharq tomonidagi yerlarini ham o‘z hokimiyatiga bo‘ysindirishni oliy maqsad qilgan edi. Dastlab, U 1428-1429 yillari Turaga harbiy yurish qildi. Shahar hokimlari (beklar) Adabbek, Kepakxo‘ja va shahar boyonlari qarshiliksiz Abulhayrxonga bo‘ysinishdi. Bu yerda uning nomiga xutba o‘qitilib, tanga-pullar zarb etilgach, Tura 1446 yilgacha shayboniylar (ya‘ni, O‘zbek ulusi) davlatining poytaxti bo‘lib qoldi.

Ana shu tariqa, uning huzuriga Mas‘ud ibn Usmon Ko‘hisoniyning hikoya qilishiga ko‘ra, o‘sha vaqtlarda mashhur bo‘lgan bir qancha beklar, sultonlar, jumladan, Xizrxonning o‘g‘li Arabshohning avlodidan bo‘lgan Baxtiyor sulton (umrining oxirigacha sodiq lashkarboshi bo‘lgan) keladi.

Abulhayrxonning juda qisqa vaqt ichida (1428-1431 yillar orasida) Shaybon ulusini birlashtirib, o‘z hokimiyatini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladi.

Ta‘bir joiz bo‘lsa shuni aytish mumkinki, “Bahrul-asror” muallifi Mahmud ibn Valining yana yozishicha, Abulhayrxon o‘sha davrda Oltin O‘rdada hukmronlik qilayotgan To‘qay Temur avlodlariga bo‘ysinmay, o‘z davlatining mustaqilligini e‘lon qilishi, shuningdek, ushbu manbada To‘qay-temuriyzoda Muhammadxon Saroychiqdagi ajdodlarining taxtiga o‘tirgach, barcha uluslarning hokimlari singari Abulhayrxon ham qurultoyga dav‘at etiladi. Ushbu qurultoyda qo‘shin to‘plash to‘g‘risidagi qaroriga bo‘ysinishni istamagan Abulhayrxon va boshqa shayboniylarning qurultoydan chiqib ketishi To‘qay temurlar va shayboniylar o‘rtasidagi ittifoq mana shu voqeadan so‘ng buzilishga olib keldi (5, 76-77-b.).

Ammo, Shaybon ulusining so‘nggi hukmdorlari (Davlat Shayx, Jumaduoq, Mahmudxo‘ja) ma‘lum bir darajada To‘qay temuriyzodalarga mute‘ bo‘lgan.

Abulhayrxon keyingi yurishlar davomida ya'ni, 1431-32 yillarda Xorazm (Hofiz Tanish Buxoriy, 1999. 53-54-b.) va o'z dushmanlari bo'lgan aka-uka Ahmadxon va Mahmudxonlar, otalari Kichik Muhammad, Javoq Sulton va Boshog Sultonlarning birlashgan kuchlarini Egritepa (prof. A.A.Semyonov bu yerni Iqritur, "Tarixi Abulxayrxoniy"da yozilishicha, Iqritub deb atalgan. Uning joylashuv yerini prof. A.A.Semyonov Sirdaryo bo'yidagi dashtlardadir deb tahmin qilgan)da mag'lub etib, ularning qarorgohi bo'lgan O'rda bozor(bir vaqtlar Sainxon, ya'ni, Botuxon qarorgohi)ni egallagan(Ahmedov, 1992. 44-45-b.) va shu tariqa Dashti Qipchoqning g'arbiy qismida o'z mavqeyini mustahkamlab olgan. Abulhayrxon 15 yil (1431-1446 yillar) davomida o'z mulkini kengaytirish uchun olib borgan harbiy yurishlari natijasida Sirdaryo va qozoqlar dashtida markazlashgan bo'lmasa-da, patriarxal-davlat tashkil etiladi.

Abulxayrxon davlatining chegaralarida uning davlatiga xavf soladigan kuchlar yo'q emas edi. Ya'ni, bir tomondan, Iboqxon, Burka Sulton, Jonibek va Garoy kabi sultonlarning unga bo'ysinmasdan kurash olib borayotganligi hamda faol raqiblaridan biri o'zbek xoni – Mustafaxonning mang'itlarning ancha qismini o'z tomoniga og'dirib olganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, janubi-g'arb tomonlarda ko'chib yuruvchi ayniqsa, Egritepadagi mag'lubiyat xunini olish maqsadida qulay fursat kutayotgan To'qay-temuriyzodalar edi.

Ammo shunga qaramay, Abulhayrxon XV asrning 40-yillarida o'z yurishlarini yangidan boshladi. Xususan, 1446 yili Shohrux ibn Amir Temurning og'ir ahvoli va Mo'g'ulistondagi siyosiy tarqoqlikdan ustalik bilan foydalanib, Sirdaryoning o'rta oqimining ikki qirg'og'idagi shahar-qalalar, ya'ni, Oqqo'rg'on, Arquq, Sig'noq va Suzoq kabi qal'alarini zabt etadi (6, 53-b.). Ushbu shahar-qal'alarning joylashuvi qadimshunoslik (arxeologik) xaritalarida Sirdaryoning chap qirg'og'ida ekanligi aniqlangan (3, 47-48-b.).

Shundan so'ng, o'zbeklar davlatining markazi - Sig'noq qal'asi hisoblanib, u 1446 yildan boshlab, to davlat inqirozi, ya'ni, 1468-69-yillarga qadar poytaxt vazifasini bajardi.

Umuman olganda, Abulhayrxon harbiy yurishlari natijasida ham ko'chmanchi, ham o'troq aholi yashaydigan yerlarda markazlashgan bo'lmasa-da, patriarxal-davlat o'rnatiladi. O'zbeklar davlatining chegaralari sifatida shimolda –

Turagacha, janubda – Xorazmning g‘arbiy qismi bilan Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimigacha yetgan. Bu davlat hozirgi Qozog‘iston, g‘arbiy Sibirning ko‘p qismini va Xorazmning janubiy-g‘arbiy qismini o‘z ichiga olgan.

Bu keng hududda obod shaharlar va sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Ya‘ni, 1874 yil izlanishlar olib borgan G.S.Zagryajskiy Sirdaryo, Aris, Qoratog‘ va Turkiston oralig‘idagi yerlar Qoratog‘dan oqib tushadigan Bugun, Chayon, Bo‘rjar va Iqon daryolarining suvi bilan yaxshi sug‘orilganligini ta‘kidlab o‘tgan. Keyingi asrlarda (ya‘ni, XX asr) esa V.A.Kallaur, P.I.Richkov kabilar ushbu hududlarni haqiqatdan ham obod va sug‘orilganligini isbotlaydilar (7, 70).

Xulosa qilib aytganda, hozirgi O‘zbekiston va O‘rta Osiyo hududlarida XV asr oxiri va XVI asrning boshlarida o‘z hukmronliklarini o‘rnatgan o‘zbeklar faqat o‘zbek xalqinigina emas, balki qozoq xalqining ham shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuningdek, ular o‘zbek xalqining etnik tarkibiy qismidan biri sanalib, tez orada Movarounnahrning turkiy ommasi orasiga singib ketgan va faqat unga o‘z nomini bergan. Shuning uchun ayrim olimlarning shu paytga qadar o‘zbek xalqi faqat XV asrdan keyingina ma‘lum, degan qarashlarining mutlaqo noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

Ayrim tarixshunoslar (P.P.Ivanov, A.A.Semyonov), Abulxayrxon davlatini vaqtinchalik davlat birlashmasi bo‘lgan, deb hisoblaydi. Ammo unda mavjud bo‘lgan davlat mahkamalari, devonlar, davlat mansabdorlari, soliq tartiblari hamda davlat boshlig‘i ya‘ni, xon nomidan tangalar zarb etilganligi, boshqa davlatlar xususan, temuriylar bilan elchilik munosabatlari, ya‘ni davlat tuzumi alomatlari uning vaqtinchalik davlat birlashmasi bo‘lgan deb emas, balki markazlashgan bo‘lmasa-da, patriarxal-davlat bo‘lganligidan dalolat beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <http://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-majlisga-murojaatnomasi>

2. Мухамед Юсуф Мунши. Муқим-ханская история. / Пер. С тадж., предисл., примеч., и указатели проф. А.А. Семенова тарж. – Ташкент: Изд-во АН Уз ССР, 1956. Стр. 49.

3. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент, А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1992. 152-б.
4. Аҳмедов Т. Ўзбек миллий давлатчилиги тарихида кенгаш, машварат ва маслаҳат. Тошкент, Зарқалам. 2006. 40-68 бетлар.
5. Вамбери, Ҳерман. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Китобдан парчалар. /Тўпл.: С.Аҳмад/. – Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. 96-б.
6. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. 1-китоб. Тошкент, Шарқ, 1999. 416-б.
7. Аҳмедов Б. Государство кочевых узбеков. М., 1965 г. с.70.
8. Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод / Ш.Воҳидов. Тошкент, Янги аср авлоди, 2009.430-б.